

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON TIJORAT HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI

*Abdurahmanov Abdumotal Abdujabborovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Biznes huquqi Magistranti*

Annotatsiya Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi elektron tijorat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu munosabatlarning Markaziy Osiyo mamalakatlari doirasidagi huquqiy holati hamda rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston elektron tijorat munosabatlarini tartibga solishning zarurati, ushbu sohada muammo va kamchiliklar tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasida O‘zbekistonda elektron tijorat huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan bir qancha tajklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, e-tijorat, e-pay, O‘zbekiston, smart shartnomalar, blokchein texnologiyalari.

Аннотация В данной статье проанализированы нормативно-правовые акты, регулирующие отношения электронной коммерции в Республике Узбекистан. Кроме того, рассмотрено правовое положение и перспективы развития этих отношений в рамках государств Центральной Азии. Кроме того, проанализирована необходимость регулирования отношений электронной коммерции в Узбекистане, проблемы и недостатки в этой сфере. В результате этих анализов был разработан ряд рекомендаций и рекомендаций по совершенствованию правовых основ электронной коммерции в Узбекистане.

Ключевые слова: электронная коммерция, электронная коммерция, e-pay, Узбекистан, смарт-контракты, блокчейн-технологии.

Abstract This article analyzes the regulatory legal acts regulating e-commerce relations in the Republic of Uzbekistan. In addition, the legal situation and prospects

for the development of these relations within the framework of the Central Asian states were considered. In addition, the necessity of regulating e-commerce relations in Uzbekistan, problems and shortcomings in this area are analyzed. As a result of these analyses, a number of recommendations and recommendations were developed to improve the legal framework of e-commerce in Uzbekistan.

Keywords: e-commerce, e-commerce, e-pay, Uzbekistan, smart contracts, block chain technologies.

O'zbekistonda elektron tijoratning jadal rivojlanishi tabiatan obyektiv tasnifga ega bo'lib, kompyuter va internet-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Dastlab, tijorat faoliyati uchun yangi texnik imkoniyatlar paydo bo'ldi, so'ngra tadbirkorlar sinab ko'rish va xatolar usullari bilan bu imkoniyatlardan foyda olish imkoniyatlarini o'rganishdi.

Texnologik jihatdan, O'zbekistonda elektron tijorat Internetga bog'lanishning barcha spektrida ishtirok eta oladi: kommutatsiya qilinadigan keng yo'lakli va simli telefondan mobil telefonga qadar. Hozirgi kunda – takomillashib borayotgan yuqori tezlikdagi keng polosali va mobil qurilmalar orqali simsiz ulanish O'zbekistonda jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, mobil Internet foydalanuvchilar soni barqaror o'sib bormoqda va 2018 yil oxiriga kelib qariyb 22 mln. foydalanuvchi mobil telefondan foydalangan. O'zbekistonda mobil trafikning yillik hajmi 70 mln. Gbdan oshib ketdi.

Bugungi kunga kelib, dunyoda elektron tijorat aylanmasi, 2019-yil uchun prognozlarga ko'ra, 29 trillion AQSH dollarini tashkil etadi, shundan onlayn chakana savdo tarmog'i 3,4 trillion AQSH dollarini tashkil etadi va bu global chakana savdo aylanmasining o'rtacha 13,7 foizini egallaydi va 2 yil davomida 4,8 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Dunyoda elektron tijorat ulushining yarmidan ko'pini egallagan XXR, AQSH, YeI kabi davlatlar jahon yetakchilari bo'lib qolmoqda. MDH mamlakatlarida elektron tijoratning chakana tovar aylanmasidagi ulushi nihoyatda

pastligicha qolmoqda, chunki bu ko‘rsatkich Rossiya Federatsiyasida atigi 4 foizni, Qozog‘istonda 1,8 foizni tashkil etadi.

Elektron tijoratni amalga oshirish uchun huquqiy shart-sharoitlarni ta‘minlash, elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini ta‘minlash, elektron hujjatlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini belgilash, elektron hujjatlarni dalil sifatida tan olish maqsadida “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonuni ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asosi Qirg‘iziston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunlari hisoblanadi.

O‘zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi muqarrar ravishda kompaniyalar tomonidan nafaqat tashqi, balki ichki bozorlarda ham tegishli texnologiyalardan foydalanishni talab qilmoqda. Elektron tijoratni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.05.2018 yildagi PQ-3724-sonli qaroriga muvofiq davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi maqsadlaridan biri sifatida (25-maqsad) belgilanishiga xizmat qildi.²⁵

O‘zbekistonda qonunchilik va huquqiy nazariya AKT, xalqaro elektron aylanmaning jadal sur‘atlarda rivojlanishidan ortda qolmoqda. Shu bilan birga, elektron muomalani qonunchilik bilan tartibga solish uni qo‘llash amaliyotidan ancha orqada qolmoqda, bu jiddiy ilmiy tushunishni talab qiladigan ham nazariy, ham amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Huquqiy tuzilmalarning murakkabligi va yangiligi huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuv yo‘qligiga olib keldi, bu esa bir qator huquqiy bo‘shliqlar va kolliziyalarni keltirib chiqardi. Elektron tijorat jarayonida

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/pdfs/5841063>

shartnomalar tuzish yangi, nomlanmagan shartnomalardan foydalanishni talab qiladi. Elektron tijorat bilan bog'liq munosabatlarning yetarli darajada huquqiy tartibga solinmaganligi ayrim harakatlarni bitimlar sifatida kvalifikatsiya qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Ushbu ko'plab muammolar nafaqat O'zbekiston qonunchiligida yuzaga kelmoqda shuningdek ayrim xorijiy huquqiy tizimlarda elektron operatsiyalarni tartibga solishni optimallashtirishga qaratilgan qonunchilik islohotlari allaqachon amalga oshirilgan bo'lib bu borada muhim xalqaro aktlar mavjud. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ushbu maqolaning mavzusi juda dolzarbdir.

O'zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi. Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat so'zining ma'nosini tushunishga harakat qilib ko'rgan. Hali o'zining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagan bunday faoliyat bilan bog'liq AQSh bozorlarida yiliga o'rtacha 1,5-2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar aylanadi. [2]

Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodda, ayniqsa tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo'llanishi yotadi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma'lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O'zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma'lum darajadagi informatsion tayorligi mavjud bo'lgan holatdagina sodir bo'ladi.

Yurtimizda elektron tijorat sohasidagi munosabatlarning normativ-huquqiy asoslari yaratilgan. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”, “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi va boshqa Qonunlar ana shular jumlasidandir. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida elektron bank hujjat aylanishi elektron plastik kartochkalar kabi tizimlar amaliyotga izchil joriy etilayapti. Barchaga ma’lumki, keyingi yillarda, yurtimizda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Natijada elektron tijoratning ahamiyati tobora oshib, aholining ushbu soha xizmatlariga bo‘lgan talab va ehtiyojlari yuksalib borayapti. Shak-shubhasiz, elektron tijorat bozorini taraqqiy toptirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanib, tegishli mexanizmlarni kengroq joriy qilish, eng avvalo, elektron tijorat sohasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi. Oliy Majlis Senatining ikkinchi yalpi majlisida ko‘rib chiqilishi kutilayotgan yangi tahrirdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun ham ana shu talab va ehtiyojlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda kompyuterlashtirish va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun muayyan chora- tadbirlar amalga oshirildi. Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyat ko‘rsatishining muhim iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beruvchi normativ huquqiy baza yaratildi. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bir qator qonunlar qabul qilindi. Shu jumladan, elektron tijorat doirasida uning ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy- moliyaviy munosabatlarni samarali tartibga solish uchun har tomonlama takomillashgan me‘yoriy huquqiy baza yaratildi. Bularga, **“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun (11.12.2003y)**, **“Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun (29.04.2004y)**, **“Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun (29.09.2022y.)**,

“Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi Qonun (12.10.2022y), “Elektron hukumat to’g’risida”gi Qonun (03.03.2016) va boshqa me’yoriy hujjatlarni keltirish maqsadga muvofiq.

«Elektron tijorat to’g’risida»gi yangi tahrirdagi Qonun 2022 yilda qabul qilingan. Qabul qilingan qonun asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo’yicha amalga oshirilayotgan chora- tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan, elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi. Shu bilan birga, O’zbekistonda elektron tijoratning to’laqonli bozorini yaratishga, mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga to’siq bo’layotgan qator quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qoldi:

birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur’atlardagi o’zgarishlariga mos kelmaydi va o’z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik sub’ektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta’minlamadi;

ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik sub’ektlariga tashqi bozorlarda to’liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali mahsulotlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to’siqlari saqlanib qoldi;

uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo’naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo’lga qo’yilmadi, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to’xtab turishiga olib keldi;

to’rtinchidan, mahalliy to’lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo’qligi, mamlakat tadbirkorlik sub’ektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to’liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta’sir qildi;

beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, mahsulotlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qoldi, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keldi;

oltinchidan, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirmadi, bu esa Internet tarmog'i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib keldi, shuningdek, bu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklab qo'ydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o'z aksini topadi.

REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси//<https://president.uz/uz/lists/view>.

2. Р.Ж.Рузиев Номланмаган шартноманинг ҳуқуқий моҳияти. –Т., Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. 2015 №1. 19-23 бетлар.

3. Клейн Н.И. Комментарий к Гражданскому кодексу Российской Федерации части первой (постатейный). – М.: Юрид.фирма “Контракт”: ИНФРА – М, 2005. – С.945.

4.В.Р.Топилдиев Замонавий технологияларни фуқаролик ҳуқуқий фанларнинг ривожланиши ва фуқаролик ҳуқуқий муносабатларга таъсири //

“Фуқаролик ҳуқуқий фанларини ривожлантириш тенденциялари ва фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Т., 2022. 47-61 бетлар.

5. Топилдиев В. “Фуқаролик ҳуқуқи”. I қисм. “Университет”. -Т.:2014.-288

6. Ананько А. Электронная форма сделки в международной торговле.
<http://www.russianlaw.net/law/doc/a124.htm>

7. Рузиназаров Ш.Н., Ачилова Л.И. Электронные сделки и проблемы их применения в условиях цифрового гражданского оборота / Развитие общества и науки в условиях цифровой экономики: Монография. – Петрозаводск, 2020. – 167